

**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 26/26.01.2023.T.109.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

AZIMOVA SHAXLO NIZOMOVNA

**KOMPOZIT GRUNTLAR TARKIBINI ULARNING MEXANIK
KO‘RSATGICHLARIGA TA’SIRI**

**05.09.02 - Asoslar, poydevor va yer osti inshootlari. Ko‘priklar va transport
tonnellari. Yo‘llar, metropolitenlar**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy daraja olish uchun dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (PhD) философии по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Azimova Shaxlo Nizomovna

Kompozit gruntlar tarkibini ularning mexanik ko'rsatgichlariga ta'siri.....5

Азимова Шахло Низомовна

Влияние состава композитных грунтов на их механические показатели.....26

Azimova Shakhlo Nizomovna

The influence of the composition of composite soils on their mechanical properties
.....49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published
works.....50

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 26/26.01.2023.T.109.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-
QURILISH UNIVERSITETI**

AZIMOVA SHAXLO NIZOMOVNA

**KOMPOZIT GRUNTLAR TARKIBINI ULARNING MEXANIK
KO‘RSATGICHLARIGA TA’SIRI**

**05.09.02 - Asoslar, poydevor va yer osti inshootlari. Ko‘priklar va transport tonnellari.
Yo‘llar, metropolitenlar**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy daraja olish uchun dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5478 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o'zbek, ingliz (rezyume)), ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdaqu.edu.uz) va Ziyonet axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sirojiddinov Zayniddin Sirojiddinovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Sultanov Karim Sultanovich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Madatov Abdurahim Madatovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **“O‘ZOG‘IRSANOATLOYIHA” AJ**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «_____» _____ soat _____da Kichik faollar zalida bo'lib o'tadi (manzil: 140147, Samarqand sh. Lolazor ko'chasi 70. Tel. (0366) 237-19-53; Faks: (0366) 237-26-30; e-mail samdaqu@edu.uz, samdaquarm@samdaqi.edu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№__ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140147, Samarqand sh. Lolazor ko'chasi, 70. Tel. (0366) 237-19-53; Faks: (0366) 237-26-30; e-mail samdaqu@edu.uz, samdaquarm@samdaqi.edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ №__ raqami reyestr bayonnomasi).

V.F. Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi v.v.b., t.f.d., professor

D.T. Inoyatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.b.f.d., (PhD)

E.S. Tulakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi t.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda texnika va qurilish sohasidagi ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish, qurilish samaradorligi va sifati oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar va mahalliy xom ashyo asosida kompozit materiallardan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, yer osti asoslarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, kompozit gruntlar tarkibini ilmiy asoslash va ularning fizik-mexanik ko'rsatkichlarini aniqlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada, jumladan AQSh, Yevropa va Rossiyada poydevorlarning notekis cho'kishini kamaytirish va mustahkamligini oshirish uchun iqtisodiy tejamkor sanoat chiqindilari va mineral qo'shimchalardan keng foydalanilmoqda. Ko'p hollarda tabiiy gruntlarning tarkibi qurilish talablariga to'liq javob bermagani sababli, qumli va gilli gruntlar turli nisbatlarda o'zaro aralashtirilib, "kompozit gruntlar"dan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar mazkur kompozit gruntlarning namlik, iqlim va uzoq muddatli ekspluatatsiyadagi barqarorligini chuqur o'rganish, normativ ko'rsatkichlar va hisoblash usullarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda jumladan, ayniqsa qurilishni rejalashtirish va texnik-iqtisodiy asoslash bosqichlarida tabiiy struktura va namlikka ega gruntlarning fizik ko'rsatkichlariga tayanib, mustahkamlik va deformatsiya ko'rsatkichlarini statistik jadvallar asosida aniqlash bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mavjud me'yoriy hujjatlarda bunday jadvallardan I–II sinf binolar qurilish jarayonini asoslashda, III–IV sinf binolar uchun esa qo'shimcha murakkab geologiya ishlarisiz loyihalashda foydalanish imkoniyati nazarda tutiladi va bu dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda ham mazkur muammolarni hal etish maqsadida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mahalliy tabiiy xom ashyo asosida tayyorlanadigan qumli va gilli kompozit gruntlar tarkibini mustahkamlik, deformatsiya va suv o'tkazmaslik nuqtai nazaridan optimallashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda kompozit gruntlardan avtomobil va temir yo'llari, gidrotexnik inshootlar, sanoat va fuqarolik qurilishi, muhandislik kommunikatsiyalari sohalarida poydevor atroflarini, pol osti qismlarini to'ldirish, sun'iy asos yaratish, yer sathini tekislash hamda tirgovuch devorlar ortidagi bo'shliqlarni to'ldirishda keng foydalanilmoqda. Shu bois, ularning optimal tarkibini va fizik-mexanik ko'rsatkichlarini aniqlash qurilish amaliyotida muhim vazifa sanaladi. Bu vazifalarni samarali bajarish uchun innovatsion tadqiqot usullarini joriy etish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash va normativ hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bino va inshootlar qurishining tejamkor va ishonchli usullarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni) hamda uni amalga oshirishga qaratilgan "2022–

2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi”da, jumladan “... qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish, qurilish va loyihalash ishlari sifatini oshirish”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish va loyihalashning samarali usullarini ishlab chiqish hamda ularni qurilish jarayonida qo‘llashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning III “Mahalliy tabiiy resurslardan samarali foydalanish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qo‘yilgan masalalar yechimi qurilish amaliyotida o‘ta zarurligiga qaramay, yetarli darajada o‘rganilmagan.

Strukturasi buzilgan tuproq (suglinok) bilan qum aralashmasidan tashkil topgan (kompozit) gruntlarning xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar natijalari yoritilgan manbalar mavjud emas.

Qo‘yilgan muammoga yaqin masalalar sifatida gilli yoki qumli to‘ldirgichli yirik donali tabiiy strukturali gruntlar xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarni ta’kidlash lozim. Bular qatorida V.I. Fyodorov, A.A.Vasilev, G.L. Tkachenko, V.L. Lebedev, A.V. Konviz, V.E. Abramov, L.I. Aminova, O.V. Dobudko va boshqalarni ta’kidlash mumkin.

Yo‘l qurilishi uchun E.M. Dobrov yirik donali gruntlarni umumiyashtirilgan tasnifini taklif etgan. Yirik donali gruntlarning fizik-mexanik xossalarini o‘rganish bilan V.V. Oxotin, A.N. Lujetskiy, E.E. Minervina, A.I. Sheko, Ya. Jurek, A.I. Teytelbaum, R.T. Tulinov, L.A. Avakyan, V.P. Vixarev, L.N. Rasskazov, A.I. Sheko, Mendosa Duran, Tomas Antonio va boshqalar shug‘ullanganlar.

Tabiiy strukturali bir jinsli bo‘lmagan tog‘ jinslarini xususiyatlarini, oldindan ma’lum bo‘lgan tashkil etuvchi komponentlarining xususiyatlari orqali, tajribalarni matematik modellashtirish nazariyasi asosida aniqlash mumkinligi prof S.B. Uxov rahbarligida A.V. Konviz bajargan ilmiy ishlarida yoritilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy – tadqiqot muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti “Qurilish muhandisligi” kafedrasining universitet kengashida tasdiqlangan va 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishi “Zamonaviy bino, inshootlar qurilishi texnologiyalarini, zamonaviy me’yoriy, iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish, baholash va favqulodda vaziyatlarda kutilmagan zararni kamaytirish usullarini tadqiq etish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qurilish amaliyotida keng qo‘llaniladigan o‘rtacha yiriklikdagi va yirik qum bilan strukturasi buzilgan gilli grunt aralashmasidan tashkil topgan kompozit gruntlarni samarali tarkiblarini hamda ularning fizik ko‘rsatgichlariga bog‘liq holda me’yorlashtirilgan deformatsiya, mustahkamlik va suv

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

o‘tkazuvchanlik ko‘rsatgichlarini me‘yoriy va hisobiy qiymatlarini aniqlashga imkon beradigan usullarni yaratishdir.

Tadqiqotning vazifalari:

kompozit gruntlarning fizik-mexanik xossalarini tadqiq etish bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarni tahlil qilish;

kompozit gruntlar uchun aralashmaning optimal tarkibini aniqlash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish;

tajriba–sinov natijalarini ehtimoliy–statistik tahlil etib, optimal tarkibli kompozit gruntlarning deformatsiya moduli, zarralararo bog‘lanish kuchi, ichki ishqalanish burchagi hamda sizish koeffitsiyentini aniqlash;

optimal tarkibli kompozit gruntlarning fizik ko‘rsatgichlariga bog‘liq ravishda mustahkamlik va deformatsiya ko‘rsatgichlarini me‘yoriy hamda hisobiy qiymatlarini aniqlash uslubini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti. Sanoat–fuqaro, gidrotexnik inshootlari, avtomobil va temir yo‘llar, muhandislik kommunikatsiyasi qurilishlarida sun‘iy asos, to‘ldirgich, to‘shama qatlam hamda qurilish ashyosi sifatida foydalaniladigan qum va tuproq aralashmasidan tashkil topgan bir jinsli bo‘lmagan kompozit gruntlar.

Tadqiqotning predmeti. Qurilish amaliyotida keng qo‘llaniladigan hamda hududimizda ko‘p tarqalgan qumli hamda gilli grunt aralashmasi (kompozit gruntlar) ning fizik va mexanik xususiyatlarini o‘rganib, ularni samaradorligini baholab, amaliyotga joriy qilishdir.

Tadqiqotning usullari. Eksperimental (laboratoriya va dala sharoitida) sinovlar zichlik va namlikni, siqilish mustahkamligi va deformatsiya modulini aniqlash, suv o‘tkazuvchanlikni tekshirish, yuklama ostida dala sinovlari o‘tkazish, hamda natijalar asosida ehtimoliy-statistik ishlov berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

eksperimental tadqiqot natijalari asosida qum va tuproq aralashmasidan tashkil topgan kompozit gruntlarning optimal tarkibi aniqlangan;

kompozit gruntlarning optimal tarkibi uchun fizik-mexanik ko‘rsatgichlarining turli ehtimoliy chegaralarda me‘yorlashtirilgan (jadvallashtirilgan) qiymatlari ehtimoliy-statistik usulda ishlab chiqilgan;

laboratoriya va dala sharoitida olingan natijalar farqini hisobga olgan holda, optimal tarkibli kompozit gruntlarning kompressiyali va haqiqiy (dala sharoitida aniqlanadigan) deformatsiya modullarini baholash imkonini beruvchi “o‘tish koeffitsiyenti” ishlab chiqilgan;

kompozit gruntlar amaliyotda an’anaviy gruntlar o‘rniga qo‘llanganda, ularning samaradorligi real ob‘yektlarda olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kompozit gruntlardan barpo etilgan, poydevor asosi cho‘kishining, sezilarli darajada kamayishi, asos hisobiy qarshiligining an’anaviy usulda bajarilgan asosga nisbatan 1,5-1,8 barobar oshishi isbotlangan;

turar-joy binosi poydevori o‘lchamlari sezilarli darajada kamayishi aniqlangan;

tirgovuch devorlarga ta'sir qiladigan "faol" bosimning kamayishi va "sust" bosimning oshishi ilmiy asoslangan;

yo'l poyini barpo etishda kompozit gruntlarning iqtisodiy samaradorligi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi eksperimental tadqiqotlarning zamonaviy asboblardan foydalanilgan holda Davlat standartlari talablari bo'yicha bajarilganligi, eksperiment natijalarini tahlili PK Lira-SAPR, IndorPavement Expert 9.1 kabi hisoblash dasturlarida bajarilganligi, ko'p sonli eksperimental tadqiqot natijalarining o'tkazilgan sinovlar sonini vakolatligi ta'minlanib aniqlanganligi, tajriba-sinov natijalarini turli sabablarga ko'ra ro'y berishi mumkin bo'lgan qo'pol xatoliklar ehtimoliy usulda baholangandan so'ngina, qolgan natijalar asosiy tahlilga kiritilgani, hisobiy qiymatlari turli ishonchlik chegaralariga mos holda, fizik ko'rsatgichlariga bog'liq ravishda aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan kompozit gruntlarning samarali tarkibi, zichlashgan holatda optimal namligi, shuningdek ularning fizik, deformatsiya, mustahkamlik va suv o'tkazuvchanlik ko'rsatgichlarining me'yoriy qiymatlarini o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kompozit gruntlarning an'anaviy gruntlarga nisbatan yuqori samaradorligi va ularni amaliyotda keng qo'llash imkonini ta'minlovchi zarur ko'rsatgichlar jadvallari hamda grafiklarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompozit gruntlar tarkibini ularning mexanik ko'rsatgichlariga ta'siri uchun ishlab chiqilgan uslub quyidagi loyihalarda joriy qilindi:

"Mardi Bunyodkor Qurilish" MChJ tomonidan Samarqand tumani "Qaynama" mahallasi hududida qurilayotgan ko'p qavatli turar-joy binosi asosini barpo etishda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 25-fevraldagi №04-06/2188-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, poydevor cho'kishining miqdori 3 m li faol siqilish qismida 6,4 mm ga kamayishiga, asos hisobiy qarshiligining 1,5-1,8-barobargacha oshishiga hamda poydevor qurilishiga sarflanadigan harajatlarning qisqarishiga erishilgan.

"Samarqandyo'lloyihalash" MCHJ tomonidan Samarqand shahar H. Abdullaev ko'chasining yo'l to'shamasini rekonstruksiya qilishda (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 25-fevraldagi №04-06/2188-sonli ma'lumotnomasiga asosan) kompozit gruntlar hisobga olinib loyihalashtirilgan. Natijada, 1000 m² asfaltbeton uchun S7-10 mm markali shag'al-qum aralashmasiga nisbatan 20,67% iqtisodiy samaradorlik ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumanlarda hamda "Qurilish muhandisligi" kafedrasida (24.12.24 y) va TAQU "Gidrotexnika va geotexnika muhandisligi" kafedrasida (29.04.25 y) muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Shu jumladan, 4 ta xalqaro bazalar ro'yxatidagi xorijiy jurnallarda, shundan, 1 ta Scopus bazasida, 6 ta OAK ro'yxatidagi jurnallarida, 5 ta xalqaro va mahalliy konferensiyalarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, 114 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 109 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning zarurligi asoslangan, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ektlari va predmetlari tavsiflangan, ularning respublikada fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi yoritilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari qayd etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoni o'rganilganlik holati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida, hozirgacha kompozit gruntlarning fizik-mexanik xossalarini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari nashr etilgan adabiyotlar tahlil etilgan. Tahlil asosida kompozit gruntlarning fizik-mexanik xossalari yetarlicha tadqiq qilinmaganligi va ularni amaliyotga joriy etishda me'yorlashtirilgan tavsiflarni yetarli emasligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Tajriba - sinov ishlari va ularning ko'lami”** deb nomlangan ikkinchi bobida, laboratoriya sharoitida kompozit gruntlardan sinov namunalari tayyorlash va fizik-mexanik ko'rsatgichlarini aniqlash bo'yicha laboratoriya sharoitida sinov uslublari yoritilgan (1-rasm).



1-rasm. Namunalarni tayyorlash, sinovlar jarayoni



2-rasm. Optimal namlikning kompozit gruntlarning tarkibiga bog'liqligi. a) yirik qum va tuproq uchun; b) o'rta yiriklikdagi qum va tuproq uchun;


Tajribalarda aniqlangan kompozit grunt tarkibi bilan optimal namligi orasidagi bog'liqlik 2-rasmida ko'rsatilgan.

Ko‘p sonli laboratoriya tadqiqotlari asosida o‘rnatilgan quruq grunt zichligining turli nisbatdagi tarkibiga bog‘liqlik grafiklari 3-rasmda keltirilgan.


Ushbu tadqiqot natijalari asosida gilli gruntlarga 30-50% o‘rtacha yiriklikdagi qum, 40-60% yirik qum aralastirganda, kompozit grunt zichligi maksimal qiymatga ega bo‘lishi aniqlandi.

Mustahkamlik, deformatsiya va suv o‘tkazuvchanlik ko‘rsatgichlarini aniqlashda har bir aralashma uchun, tajriba sinov ishlari optimal namlik va maksimal zichlik chegaralarida olib borildi.

Laboratoriya sharoitida kompozit grntlarning deformatsiya moduli kompressiya uskunasi aniqlandi. Kompozit grntlarning barcha tarkiblari uchun g‘ovaklik koefitsientining bosimdan bog‘liqlik grafiklari $e=f(p)$, 4 -rasmda keltirilgan.



3-rasm. Quruq holatdagi kompozit grunt zichligi ρ_d ning uning tarkibiga bog‘liqlik grafi: a) o‘rtacha yiriklikdagi qum va tuproq; b) yirik qum va tuproq uchun



4-rasm. $e=f(p)$ grafi


Tajriba natijalariga asoslanib, kompozit grntlarning deformatsiya modulini turli tarkiblarga bog‘liqlik grafi 5-rasmda keltirildi.

Qumli grntlarning siqilish holatida deformatsiyalanishi, asosan uning

tarkibidagi mayin to'ldiruvchilar hisobidan (tufayli) sodir bo'ladi. 5-rasmdan ko'rish mumkinki, eng katta siqilish deformatsiyasi to'ldiruvchisi tuproq bo'lganda, eng kami esa qumga xosdir.


Keltirilgan tajriba natijalaridan xulosa qilish mumkinki, asos gruntlarini kamroq deformatsiyalanishi uchun ko'proq qumlardan foydalanish zarur ekan.

Laboratoriya sharoitida kompozit gruntlarning mustahkamlik ko'rsatgichlari GGP-30 Maslov – Lure uskunasi aniqlandi.



5-rasm. Deformatsiya modulining aralashma tarkibiga bog'liqlik grafiqi: a) o'rtacha yiriklikdagi qum va tuproq; b) yirik qum va tuproq uchun.

Kompozit gruntlarning turli tarkiblaridagi zarralararo bog'lanish kuchini aralashma tarkibiga bog'liqlik grafiqi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Qovushqoqlik kuchining aralashma tarkibiga bog'liqlik grafiqi: a) o'rtacha yiriklikdagi qum va tuproq; b) yirik qum va tuproq uchun


O'rtacha yiriklikdagi qum va tuproq nisbatidan tashkil topgan aralashmalar tarkibi 100 % tuproq ($J_p=0,08$) dan iborat bo'lganda, qovushqoqlik kuchining qiymati maksimal - 42 kPa ni tashkil etdi.

Yirik qum va tuproq nisbatidan tashkil topgan aralashmalar tarkibi 100 % tuproq ($J_p=0,11$) dan iborat bo'lganda, qovushqoqlik kuchi maksimal, ya'ni 48.1 kPa ga teng bo'ldi.


Normal kuchlanishlarning $\sigma=100, 200, 300$ kPa miqdorlarida urinma kuchlanish τ ning kompozit gruntlarni turli tarkiblariga bog'liqlik grafiqlari 7-rasmda keltirildi.

Yirik qum/tuproq tarkibli kompozit gruntlarda, urinma kuchlanish τ o'rtacha yiriklikdagi qum/tuproqli tarkibga nisbatan 1,5 barobarga oshar ekan. Normal

kuchlanish σ ning yuqori qiymatlarida ($\sigma = 200 \div 300$ kPa) kompozit gruntlar tarkibiga qo‘shiladigan qum miqdorini oshirib borish natijasida urinma kuchlanish τ oshib borishi aniqlandi.



7-rasm. Urinma kuchlanish τ ning kompozit gruntlar tarkibiga bog‘liqlik grafiklari: 1-yirik qum/tuproq uchun; 2-o‘rtacha yiriklikdagi qum/tuproq uchun: a) normal kuchlanish $\sigma = 100$ kPa; b) $\sigma = 200$ kPa; c) $\sigma = 300$ kPa bo‘lganda.



8-rasm. Aralashma ichki ishqalanish burchagini ularning tarkibiga bog‘liqlik grafifi: a) o‘rtacha yiriklikdagi qum va tuproq; b) yirik qum va tuproq uchun

Tajriba natijalariga asoslanib, kompozit gruntlarning ichki ishqalanish burchagini ularni tarkibiga bog‘liqlik grafifi 8-rasmda keltirildi.

Yirik qumli gruntlar bilan o‘tkazilgan tajriba sinovlar natijalarida, skelet (qum) fraksiyasining tarkibi 10 dan 70% gacha oshishi bilan, ichki ishqalanish burchagi 10^0 - 11^0 gacha, o‘rtacha yiriklikdagi qumda esa, 7^0 - 8^0 gacha oshdi. Qum fraksiyasi

tarkibining 80% gacha oshishi bilan, ichki ishqalanish burchagining oshishi, deyarli chiziqli qonuniyat bo'yicha sodir bo'lishi aniqlandi.

Tajribadan olingan natijalarning o'rtacha yiriklikdagi qum va tuproq uchun fizik va mexanik ko'rsatgichlarini me'yoriy qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'rt. yir. qum	0%	10%	20%	30%	40%	50%	60%	70%	80%	90%	100%
Tuproq J_p=0,08	100%	90%	80%	70%	60%	50%	40%	30%	20%	10%	0%
W_{opt}, %	17÷16	16÷1 5	15÷1 4	14÷1 3	13÷1 2	12÷1 1	11÷1 0	10÷9	9÷8	8÷7	7÷6
ρ_{max} g/sm³	2,02	2,11	2,14	2,17	2,15	2,09	2,00	1,98	1,8	1,78	1,77
ρ_d, g/sm³	1,736	1,815	1,83	1,90	1,89	1,871	1,82	1,8	1,728	1,65 1	1,617
ρ_s g/sm³	2,70	2,70	2,70	2,70	2,70	2,65	2,65	2,65	2,65	2,65	2,65
e₀	0,5	0,48	0,46	0,40	0,396	0,45	0,465	0,47	0,51	0,59	0,60
E₀, MPa	27,41	28,82	29,06	30,24	31,11	32,47	34,17	36,06	37,16	38,9 5	39,43
C, kPa	42	40,58	37,5	35,15	30,71	27,55	21,73	17,65	9,79	4,33	2,22
φ, grad	26,08 ⁰	26,21 0	26,79 0	27,74 0	28,19 0	29,17 0	31,08 0	33,02 0	34,68 0	36 ⁰	37,31 0

2-jadval

Yirik qum	0%	10%	20%	30%	40%	50%	60%	70%	80%	90%	100%
Tuproq J_p=0,11	100%	90%	80%	70%	60%	50%	40%	30%	20%	10%	0%
W_{opt}, %	15÷16	14÷15	13÷14	11÷12	11÷12	9÷10	8÷9	7÷8	6÷7	5÷6	5÷4
ρ_{max} g/sm³	2,11	2,14	2,15	2,199	2,21	2,13	2,10	2,09	2,00	1,81	1,79
ρ_d, g/sm³	1,83	1,87	1,91	1,94	1,96	1,93	1,90	1,89	1,82	1,73	1,71
ρ_s g/sm³	2,71	2,71	2,71	2,71	2,71	2,66	2,66	2,66	2,66	2,66	2,66
e₀	0,48	0,47	0,46	0,36	0,34	0,365	0,37	0,40	0,41	0,45	0,49
E₀, MPa	28,65	29,57	30,56	32,98	34,76	35,81	37,25	39,62	40,15	44,01	46,04
C, kPa	48,1	46,2	42,69	38,05	34,96	29,68	21,39	12,28	5,67	3,11	1,64
φ, grad	27,27 ⁰	28,13 ⁰	29,09 ⁰	31,28 ⁰	33,04 ⁰	34,25 ⁰	37,36 ⁰	39,01 ⁰	40 ⁰	41,03 ⁰	42 ⁰

Tajribadan olingan natijalarning yirik qum va tuproq uchun fizik va mexanik ko'rsatgichlarini me'yoriy qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

Keltirilgan tajriba natijalaridan, tuproqning mustahkamligi va deformatsiya xususiyatlarining yaxshilanishi, ularga 30-50% qum qo‘shish bilan erishildi.

Gruntlarning yana bir muhim ko‘rsatgichi – suv o‘tkazuvchanligidir. 100% qum va 0% tuproqdan boshlab, to 0% qum va 100% tuproq bo‘lguncha, aralashmaning sizish koeffitsiyenti KF–OOM asbobida, umumiy qabul qilingan usul bo‘yicha, distillangan suvdan foydalanib aniqlandi (9-rasm). Tajriba natijalari 3–jadvalda keltirildi.

3-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanib, filtratsiya koeffitsiyentini kompozit gruntning tarkibidan bog‘liqlik grafigi 10- rasmda keltirildi.


3-jadval

Turli nisbatlardagi kompozit gruntlarning filtratsiya koeffitsiyenti qiymati

Qum va tuproq aralashmasi, %											
K_f sm/s	0/100	10/90	20/80	30/70	40/60	50/50	60/40	70/30	80/20	90/10	100/0
	$8,1 \cdot 10^{-8}$	$3,4 \cdot 10^{-8}$	$4,1 \cdot 10^{-7}$	$9,3 \cdot 10^{-6}$	$5,7 \cdot 10^{-6}$	$6,8 \cdot 10^{-5}$	$2,2 \cdot 10^{-5}$	$3,4 \cdot 10^{-4}$	$4,6 \cdot 10^{-4}$	$8,9 \cdot 10^{-3}$	$1,35 \cdot 10^{-3}$



9-rasm. KF-OOM asbobida o‘tkazilgan sinov jarayonlari



10 – rasm. Sizish koeffitsiyenti K_f ning aralashma grunt tarkibidan bog‘liqlik grafigi

Turli tarkibli kompozit gruntlar uchun eng maksimal suv o‘tkazuvchanlik yirik qumda ($K_f = 10^{-3}$), eng minimal qiymati esa tuproqda ($K_f = 10^{-8}$) kuzatildi. Keltirilgan tajriba natijalaridan xulosa qilish mumkinki, aralashma gruntlarning suv o‘tkazmaslik xususiyatini yaxshilash uchun, ular tarkibidagi gil zarrachalarining miqdorini mumkin qadar oshirish zarur.

Tajriba - sinov natijalarini ehtimoliy-statistik tahlilida, kompozit gruntlarning fizik ko‘rsatgichlarga bog‘liq ravishda, mexanik ko‘rsatgichlarini aniqlash uchun sinovlar sonini vakolatlilikini ta‘minlash lozim.

Turli ko'rsatgichlarning vakolatligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan sinovlar soni 4-jadvalda berilgan.

Tajribaviy tadqiqotlar asosida C , φ , E_0 larning ishonchlilik darajasini miqdoriy baholashning ehtimollik uslubiyati ishlab chiqildi.

Kompozit gruntlarning optimal tarkibi uchun mustahkamlik va deformatsiya ko'rsatgichlarini me'yoriy va hisobiy qiymatlarini ishonchli ehtimollikning chegarari $\alpha=0,85$, $\alpha=0,90$, $\alpha=0,95$, $\alpha=0,99$ larda aniqlangan qiymatlari 5- va 6-jadvallarda keltirildi.

4-jadval

Ko'rsatgichlar	Aralashma tarkibi, qum/tuproq (%)											
	0/100	10/90	20/80	30/70	40/60	50/50	60/40	70/30	80/20	90/10	100/0	jami
	Sinovlar soni											
Optimal namlik, W_{opt} (%)	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	121
	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	121
Oquvchanlik cheg.namlik, W_L (%)	7	7	7	7	7	7	-	-	-	-	-	42
	7	7	7	7	7	7	-	-	-	-	-	42
Plastiklik chegarasidagi namlik, W_p (%)	7	7	7	7	7	7	-	-	-	-	-	42
	7	7	7	7	7	7	-	-	-	-	-	42
Qattiq zarrachalar zichligi, ρ_s (g/sm ³)	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	77
	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	77
Zichlik, ρ (g/sm ³)	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	121
	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	121
Maksimal zichlik, ρ_{max} (g/sm ³)	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	121
	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11	121
Deformatsiya moduli, E_0 (MPa)	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	77
	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	7	77
Qovushqoqlik kuchi, C (kPa)	6	6	6	7	7	7	6	6	7	6	6	70
	6	6	6	7	7	7	6	6	7	6	6	70
Ichki ishqalanish burchagi, φ (grad)	6	6	6	7	7	7	6	6	7	6	6	70
	6	6	6	7	7	7	6	6	7	6	6	70
Jami												1440

Dissertatsiyaning “**Kompozit gruntlarni deformatsiya modulini aniqlash usullari**” deb nomlangan uchinchi bobida, kompozit gruntlar yetarli darajada tadqiqot etilmaganligi sabab, asosiy e'tibor muhim ko'rsatgich bo'lmish deformatsiya moduli E_0 ga qaratildi. Ushbu bobda siqilish ko'rsatgichlarining laboratoriya va dala sharoitida aniqlanadigan usullarini kamchilik va afzalliklari e'tiborga olindi.

5-jadval

O'rtacha yiriklikdagi qum va tuproq aralashma nisbatlarining (optimal tarkibini) me'yoriy va hisobiy qiymatlari jadvali

№	O'rt. yir. qum/ tuproq %	Ko'rsatgichlar	O'lchov birligi	Qiymatlar				
				Me'yoriy	Hisobiy			
					Ishonchli ehtimollik chegaralari			
					$\alpha=0,85$	$\alpha=0,90$	$\alpha=0,95$	$\alpha=0,99$
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	30/70	Deformatsiya moduli, E_0	MPa	30,24	28,59	28,14	27,39	25,48
2		Ichki ishqalanish burchagi, φ	grad	27,74 ⁰	26,68 ⁰	26,37 ⁰	25,84 ⁰	24,39 ⁰
3		Qovushqoqlik kuchi, S	kPa	35,15	34,66	34,51	34,27	33,60
1	40/60	Deformatsiya moduli, E_0	MPa	31,21	29,55	29,037	28,25	26,26
2		Ichki ishqalanish burchagi, φ	grad	28,19 ⁰	27,91 ⁰	27,83 ⁰	27,68 ⁰	27,29 ⁰
3		Qovushqoqlik kuchi, C	kPa	30,72	29,53	29,20	28,6	26,98

6-jadval

Yirik qum va tuproq aralashma nisbatlarining (optimal tarkibini) me'yoriy va hisobiy qiymatlari jadvali


№	Yirik qum/ tuproq %	Ko'rsatgichlar	O'lcho v birligi	Qiymatlar				
				Me'yoriy	Hisobiy			
					Ishonchli ehtimollik chegaralari			
					$\alpha=0,85$	$\alpha=0,90$	$\alpha=0,95$	$\alpha=0,99$
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	30/70	Deformatsiya moduli, E_0	MPa	32,98	32,13	31,89	31,503	30,51
2		Ichki ishqalanish burchagi φ	grad	31,28 ⁰	30,98 ⁰	30,90 ⁰	30,75 ⁰	30,35 ⁰
3		Qovushqoqlik kuchi, C	kPa	38,05	37,10	36,83	36,35	35,06
1	40/60	Deformatsiya moduli, E_0	MPa	34,76	33,62	33,31	32,79	31,47
2		Ichki ishqalanish burchagi, φ	grad	33,03 ⁰	32,49 ⁰	32,34 ⁰	32,07 ⁰	31,33 ⁰
3		Qovushqoqlik kuchi, C	kPa	34,96	34,39	34,22	33,93	33,15

Dala sharoitida o'tkaziladigan tajribalar sermashaqqatli va ser harajatliligi tufayli, ular laboratoriya va dala sharoitida o'tkazilib taqqoslandi va o'tish koeffitsiyenti m_k ni kiritish taklif etildi.

Kompressiyali sinov GOST 12248–2010 ga muvofiq, KPr-1M siqish moslamalarida olib borildi tajriba usullari esa batafsil yoritildi (11-rasm).



11-rasm. Kompresiyali uskunada kompozit grunt ko'rsatgichlarini aniqlash.



12-rasm. 40% yirik qum va 60% tuproq, 12-13% maqbul tarkib va namlikdagi kompozit gruntning g'ovaklilik koeffitsientini bosimga bog'liqlik grafigi: $e=f(p)$

Kompresiyali qurilmada kompozit gruntlarni sinash. Kompresiyali qurilmada tashqi yuk ta'sirida grunt namunasining deformatsiyasi, asosan undagi g'ovakliklar hajmining kamayishi hisobiga sodir bo'lishini nazarda tutib, 40% yirik qum va 60% tuproq 12-13% li optimal tarkib va namlik uchun har bir pog'ona yuk ta'sirida g'ovaklik koeffitsiyentini o'zgarishi aniqlanib, natijalari 12-rasmda keltirildi. Sinovlar davomida olingantadqiqot natijalari 7-jadvalda keltirilgan.


7-jadval

Kompresiyali tajribalar asosida turli bosim diapazonidagi deformatsiya modullarini qiymatlari

Bosim P, kPa	Siqilish koeffitsiyenti m_0	Nisbiy siqilish koeffitsiyenti m_v	Deformatsiya moduli E_0 , MPa	Bosim P, kPa	Siqilish koeffitsiyenti m_0	Nisbiy siqilish koeffitsiyenti m_v	Deformatsiya moduli E_0 , MPa
1	2	3	4	5	6	7	8
0.....100	0,0053	0,00351	17,1	0.....100	0,0053	0,0035	17,1
100...200	0,0040	0,00267	31,4	0.....200	0,0047	0,0031	21,8
200...300	0,0033	0,00220	35,2	0.....300	0,0043	0,0029	23,4
300....400	0,0029	0,00191	38,7	0.....400	0,004	0,0027	25,8
400....500	0,0030	0,00197	42,3	0.....500	0,0038	0,0025	27,8
500.....600	0,0028	0,00186	48,7	0.....600	0,0036	0,0024	30,4
600.....700	0,0022	0,00145	51,4	0.....700	0,0034	0,0023	34,7
O'rtacha			37,82	O'rtacha			25,86

7-jadval asosida turli bosim diapozonlarida deformatsiya modulining o'zgarish grafiklari 13-rasmda ko'rsatilgan.

Dala sharoitida Shtamp yordamida kompozit gruntlarni sinash. Kompozit gruntlarni dala sharoitida Shtamp yordamida sinash uchun ikkita qurilish maydoni tanlandi: a) turar joy binosi asosi; b) avtomobil yo'li poyi.



13-rasm. 40% yirik qum va 60% tuproq, 12-13% optimal tarkib va namlikdagi kompozit gruntlarning deformatsiya moduli E_0 ni turli bosim diapozonlariga bog‘liqlik grafigi.

a) Turar-joy binosi asosini shtamp yordamida sinash.

Samarqand tumani “Qaynama” mahallasi Buyuk El ko‘chasi, 35-uy hududida qurilayotgan ko‘p qavatli 52-xonadonli turar-joy binosi asosi tajribaviy maydon etib tanlandi. Qurilish maydonida sinov uchun o‘lchamlari – 3,6x2,4 m, chuqurligi - 0,80 m bo‘lgan handaq (kotlovan) qazildi(14-a-rasm).

Handaqa 40% yirik qum va 60% tuproq (kompozit grunt) aralashmasi 20 sm qalinlikda to‘kildi va bosqichma-bosqich zichlandi (14 b-rasm).

Asos tayyor bo‘lgach, GOST 20276.1-2020 bo‘yicha har bir pog‘ona yuk ta‘sirida shtampning cho‘kishi, shartli ravishda barqarorlashgunga qadar qayd etildi (14-c-rasm).


Zichlangan kompozit grunt cho‘kishining shtamp ostidagi o‘rtacha bosimga bog‘liqlik grafigi 15-rasmda keltirilgan.



14- rasm. Dala sharoitida turar-joy binosi asosini sinovi jarayonlari:

- a) tayyor kotlovan ko‘rinishi; b) katok yordamida zichlash jarayoni; c) kompozit gruntlarni shtamp orqali sinov jarayoni.


Zichlangan kompozit gruntlarning o‘ta cho‘kuvchanlik xususiyatining yo‘qotilganligini aniqlash maqsadida shurf (quduq) qazilib, har 15 sm.dan namuna olindi.



15-rasm. Zichlangan kompozit gruntli asos cho'kishini bosimga bog'liqlik grafiqi.

Namunalarning o'ta cho'kuvchanlik xususiyatlari kompressiyali qurilmada "ikki egri chiziq" usuli bilan aniqlandi, natijalar 16-rasmda keltirilgan.

Kompressiya usulida kompozit gruntlarning turli qatlamlari sinalganda, nisbiy o'ta cho'kuvchanlik $\epsilon_{sl}=0,01$ dan katta bo'lgan holat kuzatilmadi. Kompozit gruntning zichlash natijasida o'ta cho'kuvchanlik xususiyati yo'qotilgani kuzatildi.




16-rasm. Kompressiya qurilmasi (odometr) da turli chuqurlikdagi zichlangan kompozit grunt namunalarning o'ta cho'kuvchanligi grafiqlari: $\epsilon_{zi,tab}$ – tabiiy namlik holatidagi; $\epsilon_{zi,sat}$ - to'liq suvga to'yigan holatdagi.

b) Avtomobil yo‘li poyining asosini shtamp yordamida sinash.

Kompozit gruntlardan avtomobil yo‘l poyini barpo etishda foydalanish maqsadida, kapital ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan H. Abdullaev ko‘chasi avtomobil yo‘lida dala tadqiqotlari o‘tkazildi.



17-rasm. Yo‘l poyida o‘tkazilgan tajribalar jarayonlari



18-rasm. Terratest 5000 BLU qurilmasida tajriba o‘tkazish jarayoni


Shtampni o‘rnatish uchun tajriba maydonining tanlangan qismlarida yo‘l poyigacha bo‘lgan chuqurlikda kotlovan (handaq) qazildi. 40% yirik qum va 60% tuproq, 12-13% namlikdagi (kompozit grunt) aralashmasi 20 sm li (har bir qatlam zichlangandan so‘ng, 15 sm li qatlamga aylandi) qalinlikda 4 qatlamda yotqizildi (17-rasm). Kompozit grunt dan barpo etilgan yo‘l poyi ishchi qatlamining har bir qatlamchasi katok (Dinapac) bilan zichlanib, 60 sm li ishchi qatlam tashkil etildi.

Yo‘l poyini dinamik elastiklik modulini aniqlash maqsadida TERRATEST 5000 BLU uskunasidan foydalanildi (18-rasm).

Tajriba natijalarida, kompozit gruntlarning dinamik elastik moduli $E_{vd} = 165 \div 170$ MPa ni tashkil etdi.



19-rasm. Avtomobil yo‘li poyini shtamp orqali tajriba-sinov o‘tkazish jarayoni



20-rasm. Yo‘l poyi kompozit gruti cho‘kishining bosimga bog‘liqlik grafigi

Shtampga yukni pog'onama – pog'ona oshirib borib, har bir pog'onada ro'y beradigan cho'kish indikatorlar yordamida o'lchab borildi. Sinov jarayonlari 19-rasmda keltirilgan.

Dala sharoitida kompozit gruntli avtomobil yo'li poyi sinovi natijalari ya'ni, cho'kishning-bosimga bog'liqlik grafigi 20-rasmda keltirilgan.

Kompozit gruntlarni tajribalarda aniqlangan cho'kish asosida deformatsiya modulini hisobiy qiymatlari GOST 20276.1-2020 da tavsiya etilgan F.Shleyxer usulida aniqlandi:

$$E = (1 - \mu^2) K_1 \cdot D \frac{\Delta p}{\Delta S} \quad (1)$$

bu erda: μ - Puasson koeffitsiyenti;

K_1 – yumaloq bikr shtamp uchun 0,79 ga teng koeffitsiyent;

D – shtamp diametri;

Δr – yukning shtamp yuzasiga nisbati, ya'ni orttirma bosim, kPa;

ΔS - shtampning orttirma cho'kishi, sm;

N.A. Sitovich uslubiga ko'ra esa, ushbu bog'liqlik quyidagicha ko'rinishga ega:

$$E = \frac{\pi}{4} \cdot \frac{p \cdot D \cdot (1 - \mu^2)}{S} \quad (2)$$

Shtamp sinovlaridan olingan ma'lumotlarni taqqoslash maqsadida, tajriba natijasida olingan deformatsiya modullari (1)-(2) - ifodalar orqali aniqlanib, qiymatlari 8-jadvalda keltirildi.

8-jadval

Kompozit gruntlarni tajribalar natijasiga ko'ra aniqlangan deformatsiya modulining hisobiy qiymatlari

Shtamp diametri D , sm	Yukning miqdori N , kg	Shtamp ostidagi bosim P , kPa	Shtampni cho'kishi, S , sm	Deformatsiya moduli, MPa	
				$E = (1 - \mu^2) K_1 \cdot D \frac{\Delta p}{\Delta S}$	$E = \frac{\pi}{4} \cdot \frac{p \cdot D \cdot (1 - \mu^2)}{S}$
28,3	0,00	0,00	0,000	0,00	0,00
	3,14	49,95	0,125	35,4	34,1
	6,28	99,89	0,221	35,35	33,87
	9,42	149,84	0,284	34,79	31,2
	12,56	199,78	0,363	32,37	29,3
	15,7	249,73	0,450	29,41	26,5
	18,84	299,67	0,520	28,35	25,11
	21,98	349,06	0,600	26,5	23,54
	25,12	398,29	0,72	24,6	21,4
	28,26	447,37	0,810	22,4	18,99
	31,4	497,08	0,940	20,49	17,1
	34,54	546,79	1,1	17,98	15,6
	37,68	596,50	1,20	16,6	13,4
	40,82	646,20	1,330	15,47	12,1
	43,96	695,91	1,64	11,52	10,1

8-jadvaldan foydalanib shtampni sinash natijalari asosida hisob yo‘li bilan aniqlangan deformatsiya modullari grafiklari 21- va 22-rasmlarda berilgan.

Kompressiyali deformatsiya moduli asosida dala sharoitidagi deformatsiya modulini aniqlash uchun quyidagi ifodadan foydalanildi:

$$E_{um} = m_k E_{oed} \quad (3)$$


bu yerda m_k – o‘tish koeffitsiyenti;

E_{sht} – shtamp orqali aniqlanadigan deformatsiya moduli;

E_{oed} – kompressiyali deformatsiya moduli.


Dala sharoiti va laboratoriyada o‘tkazilgan tajriba natijalari (3) ifodaga binoan aniqlanib, natijalar 9-jadvalda keltirilgan.

Amaliy masalalarni echish uchun, o‘tish koeffitsiyenti m_k dan foydalanish taklif etildi.



21 -rasm. Deformatsiya moduli E ning cho‘kish S ga bog‘liqlik grafifi:

1-(1) ifodaga binoan ; 2- (2) ifodaga binoan



22-rasm. Deformatsiya moduli E ning o‘rtacha bosim P ga bog‘liqlik grafifi:

1-(1) ifodaga binoan ; 2- (2) ifodaga binoan

9-jadval

Umumiy deformatsiya moduli hisobining natijalari jadvali

Grunt turi	Deformatsiya moduli, MPa		O‘tish koeffitsiyenti m_k
	Dala sharoitida (shtamp) da aniqlangan E_{sht}	Kompressiya (odometr) da aniqlangan E_{oed}	
Kompozit grunt (40% yirik qum va 60% tuproq)	34,79	31,4	1,1
	29,41	35,2	0,835
	26,5	38,7	0,685
	24,6	42,3	0,581
	22,4	48,7	0,459
	20,49	51,4	0,398

Dissertatsiyaning “Tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga tadbqiqi” deb nomlangan 4-bobida, kompozit gruntni sayoz joylashgan poydevorlarning sun’iy

asoslarida, tirgovuch devorning orqa va old bo'shliqlarida hamda yo'l inshootlarida qo'llanilish tartibi bayon etildi

Sayoz joylashgan poydevorlar asoslarida, Samarqand tumani "Qaynama" mahallasi hududida qurilayotgan ko'p qavatli turar - joy binosini sun'iy asosi uchun 2 ta variant taqqoslandi. An'anaviy usul va taklif etilayotgan kompozit gruntli asos Lira-Sapr dasturida hisoblandi. Poydevor cho'kishining miqdori - 3 metrli faol siqilish qatlami uchun an'anaviy usulda $S=81$ mm ni, taklif etilayotgan kompozit gruntlarda esa $S=75,6$ mm ni tashkil qildi. An'anaviy gruntli asosga nisbatan kompozit gruntli asosning hisobiy qarshiligi 1,5-1,8 barobargacha oshishi aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, poydevor o'lchamlarining kichrayishiga olib keladi.

Tirgovuch devorlar hisobi Samarqand shahridagi Gagarin va Mirzo Ulug'bek ko'chalari kesishmasi chorrahasida qurilgan tonnelning tirgovuch devorlarni orqa va old bo'shliqlarini, mahalliy tuproq (suglinok) va taklif etilayotgan kompozit gruntlar bilan to'ldirilgan hollari taqqoslandi. Tirgovuch devorlarga ta'sir etuvchi faol bosim, kompozit gruntlardan foydalanilganda 31,4 % ga kamayishi, sust bosim esa 34% ga oshishi kuzatildi. Bu tirgovuch devorlar turg'unligining oshishiga va qurilish ashyolarini sezilarli darajada tejashga olib keladi

Kompozit gruntlarni yo'l inshootlarida qo'llanilishida, tadqiqot ob'yekti etib Samarqand shahar H. Abdullaev ko'chasi yo'l to'shamasi rekonstruksiyasi tanlanib, 3-usuldagi loyiha varianti hisoblandi.

IndorPavement Expert 9.1 dasturi yordamida loyihalananayotgan yo'l poyida taklif qilinayotgan kompozit grunt qo'llanilganda, 1000 m² asfaltbeton uchun, gruntsment (sement M-200) ga nisbatan, 88 mln. so'mga (23,4%), S7-10 mm markali shag'al va qum aralashmasiga nisbatan 77 mln. so'm (20,67%) ga iqtisodiy samarador ekanligi aniqlandi.

XULOSA

1. O'rtacha yiriklikdagi qum va tuproq hamda yirik qum va tuproq aralashmalaridan iborat kompozit gruntlarning optimal tarkiblari aniqlandi.

2. Optimal tarkib va namlikdagi kompozit gruntlarning fizik ko'rsatgichlari bilan mustahkamlik, deformatsiya hamda suv o'tkazuvchanlik ko'rsatgichlari orasida bog'lanishlar o'rnatildi, ularni vakolatligi ta'minlanib, amaliyotda qo'llanilishi uchun jadval va grafiklar shaklida izohlandi.

3. Eksperimental tadqiqotlar asosida kompozit gruntlarning optimal tarkibi uchun aniqlangan fizik-mexanik ko'rsatgichlarga bog'liq ravishda, matematik statistika va ehtimollar nazariyalari qoidalariga binoan ishlov berish natijasida me'yoriy va turli ishonchlilik chegaralardagi hisobiy qiymatlari aniqlanib, me'yorlashtirildi.

4. Turli ishonchlilik chegaralardagi kompozit gruntlarning mustahkamlik va deformatsiya ko'rsatgichlari bino va inshootlarning javobgarlik darajasini hisobga olib loyihalash imkonini beradi.

5. Laboratoriya sharoitida kompressiya uskunasi aniqlangan gruntning deformatsiya modulidan foydalanib, shtamp orqali aniqlanadigan deformatsiya modulini aniqlash uchun "o'tish koeffitsiyenti" taklif etildi.

6. Turar-joy binosi asos va poydevorlarini loyihalashda, poydevor asosini cho'kishi, an'anaviy usulga nisbatan, kompozit gruntlarda kamayishi, hisobiy qarshiligining $1,5 \div 1,8$ barobargacha oshishi tasdiqlandi. Bu esa, o'z navbatida, poydevor o'lchamlarining kichrayishiga olib keladi.

7. Tirgovuch devorlar hisobida, ularga ta'sir etuvchi faol bosim, an'anaviy usul (tuproqni zichlashtirish) dan ko'ra, kompozit gruntlardan foydalanilganda 31,4 % ga kamayishini, sust bosim esa, 34% ga oshishi aniqlandi.

8. Hisob qilingan yo'l to'shamasi asosi sifatida kompozit gruntlardan foydalanish, an'anaviy usullar, xususan M200 markali gruntsementga nisbatan 23,4% ga, shag'al – qum aralashmasiga nisbatan esa, 20,67% ga iqtisodiy samarador ekanligi isbotlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD26/26.01.2023.Т.109.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АРХИТЕКТУРНО -
СТРОИТЕЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

АЗИМОВА ШАХЛО НИЗОМОВНА

**ВЛИЯНИЕ СОСТАВА КОМПОЗИТНЫХ ГРУНТОВ НА ИХ
МЕХАНИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ**

05.09.02 – Основания, фундаменты и подземные сооружения.

Мосты и транспортные тоннели. Дороги, метрополитены

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Самарканд - 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.1. PhD/T5478

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский, (резюме)), размещен на веб-странице (www.samdaqu.edu.uz) информационно-образовательного портала Ziyonet (www.ziyonet.uz) и сайте научного Совета.

Научный руководитель:

Сирожиддинов Зайниддин Сирожиддинович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Султанов Карим Султанович
доктор физико-математических наук, профессор

Мадатов Абдирахим Мадатович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

АО "O'ZOG'IRSANOATLOYIHA"

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 г. в ____ часов на заседании научного Совета при Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете PhD26/26.01.2023.T.109.02 (Адрес: 140147, г. Самарканд, ул. Лолазор, дом 70 .Тел.: (0366) 237-15-93; факс: (0366) 237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz, samdaquarm@samdaqi.edu.uz).

С диссертацией (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета (зарегистрирована за № ____). Адрес: 140147, г. Самарканд, ул. Лолазор, дом 70 .Тел.: (0366) 237-15-93; факс: (0366) 237-26-30, e-mail: samdaqu@edu.uz, samdaquarm@samdaqi.edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки №__ от «__» _____ 2025 года).

В.Ф. Усманов
Вр. и. о., председатель научного Совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

Д.Т. Иноятов
Ученый секретарь научного Совета
по присуждению ученых степеней, (PhD)

Э. С. Тулаков
Председатель научного семинара
при научном Совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время во всем мире внедрение научных достижений в области техники и строительства, повышение эффективности и качества строительных работ, а также снижение их стоимости приобретают особую актуальность. Одним из приоритетных направлений является применение композитных материалов, изготавливаемых с использованием современных технологий и местного сырья. В развитых странах обеспечение долговременной устойчивости подземных оснований, научное обоснование состава композитных грунтов и определение их физико-механических характеристик остаются важными задачами. В связи с этим в США, Европе и России для уменьшения неравномерной осадки и повышения прочности фундаментов широко применяются промышленные отходы и минеральные добавки, отличающиеся экономической эффективностью. Во многих случаях, когда природные грунты не соответствуют требованиям строительства, особое внимание уделяется формированию композитных грунтов путём смешивания песчаных и глинистых компонентов в различных соотношениях.

В настоящее время в мире проводятся научные исследования, направленные на углублённое изучение устойчивости композитных грунтов к воздействию влаги, климатических факторов и длительной эксплуатации, а также на совершенствование нормативных показателей и методов расчёта. В данном направлении, особенно на этапах планирования и технико-экономического обоснования строительства, приоритетными являются исследования по определению показателей прочности и деформативности на основе статистических таблиц с учётом физических характеристик грунтов с естественной структурой и влажностью. Действующие нормативные документы предусматривают возможность применения таких таблиц при обосновании параметров строительства зданий I–II классов ответственности и при проектировании зданий III–IV классов без проведения дополнительных сложных геологических изысканий, что остаётся одной из актуальных задач строительной отрасли.

В нашей республике также уделяется особое внимание проведению широкомасштабных научно-исследовательских работ, направленных на поиск эффективных решений указанных проблем. Исследуется вопросы определения оптимального состава композитного грунта (песчано-глинистой смеси) позволяющие достичь максимальной прочности, минимальной деформативности и максимальной водонепроницаемости, используемые при возведении искусственных оснований фундаментов, оснований железнодорожных путей и автомобильных дорог. При строительстве гидротехнических сооружений, могут использоваться в качестве заполнителя, подстилающего слоя или основного материала, а также для выравнивания уровня земли, в ландшафтном дизайне и для заполнения задних пространств подпорных стен. Основной целью исследования является обоснование возможности использования композитных грунтов, обладающих высокой прочностью и низкой деформируемостью, как целесообразного и экономически выгодного решения.

В Республике Узбекистан реализуются комплексные меры, направленные на разработку и внедрение экономически эффективных и надёжных методов строительства зданий и сооружений. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, среди

прочего, определены важные задачи по «предотвращению строительных дефектов или проблем в строительной деятельности, повышению качества строительных и проектных работ». Разработка эффективных методов проектирования и использование их в процессе строительства имеет большое значение в реализации этих задач и обеспечении долговечности зданий².

Настоящая диссертационная работа, в определенной степени, направлена на осуществление задач, отмеченных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-5963 от 13 марта 2020 года «О дополнительных мерах по углублению реформ в строительной сфере Республики Узбекистан», постановлении ГПП-139 от 21 февраля 2022 года «О дополнительных мерах поддержки жилищного строительства и промышленности строительных материалов», и других нормативных и правовых документов, связанных с данными сферами деятельности.

